


2020-yil 1-mart holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida subyektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyatida 1049 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5,1 mingta (16,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyy soni 36,8 mingtani tashkil etgan.




Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-mart holatiga 36 751 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,6 % sanoatda, 8,1 % qurilishda, 26,4 % savdoda, 3,9 % tashish va saqlash, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.03.2020 yil	
	01.03.2019 yil	01.03.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	31 681	36 751	16,0	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 612	1 791	11,1	4,9
Sanoat	6 745	7 929	17,6	21,6
Qurilish	2 583	2 985	15,6	8,1
Savdo	7 538	9 697	28,6	26,4
Tashish va saqlash	1 259	1 450	15,2	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 504	1 793	19,2	4,9
Axborot va aloqa	1 008	1 055	4,7	2,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	718	836	16,4	2,3
Boshqa turlari	8 714	9 215	5,7	25,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (9 697 ta) savdo, (7 929 ta) sanoat, (2 985 ta) qurilish, (1 791 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1 793 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1 450 ta) tashish va saqlash, (1 055 ta) axborot va aloqa, (836 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (9 215 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 35 948 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 697 ta (15,0 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,4 % savdo, 21,6 % sanoat, 8,2 % qurilish, 4,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,0 % boshqa faoliyat turlari xissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarnig asosiy qismi Farg'ona shahri (6 445 ta), Qo'qon shahri (4 826 ta), Marg'ilon shahri (3 662 ta), Uchko'prik tumani (1 844 ta) va Dang'ara tumani (1 706 ta), Oltiariq tumani (1 610 ta), O'zbekiston tumani (1 612 ta) hamda Quva (1 554 ta) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yilning yanvar-fevral oylarida 1049 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 46,9 foizga kamaygan.

**Yanvar-fevral oyida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Farg'ona (178 ta), Qo'qon (144 ta), Quvasoy (39 ta), Marg'ilon shaharlarida (101 ta), Oltiariq (48 ta), Quva (53 ta) va O'zbekiston (46 ta), Buvayda (41 ta), Dang'ara (44 ta), Qo'shtepa (26 ta), Bog'dod (42 ta), Beshariq (30 ta), Uchko'prik (56 ta), Rishton (43 ta), Toshloq (44 ta), Farg'ona (51 ta), Furqat (26 ta), So'x (17 ta) hamda Yozyovon tumanlarida (20 ta) tashkil etilgan.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan, sanoatda (225 ta), savdoda (439 ta), qurilishda (94 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (44 ta), tashish va saqlashda (37 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (38 ta), axborot va aloqada (27 ta), sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (25 ta), boshqa turlarda (120 ta) tashkil etilgan.

**2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-mart holatiga 30 132 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lub, shundan xususiy korxonalar – 9 960 ta, oilaviy korxonalar – 3 752 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15 758 ta va boshqalar 662 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2020-yil 1-mart holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 427 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 120 taga yoki 39,1 % ga o'sgan. Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-mart holatiga xorijiy kapital ishtirokida 422 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, Farg'ona shahar 143 ta (33,9 %), Qo'qon shahar 57 ta (13,5 %), Marg'ilon shahar 21 ta (5,0 %), Quvasoy shahar 23 ta (5,5 %), Farg'ona tumanida 23 ta (5,5 %), So'x tumani 4 ta (0,9 %), Furqat tumani 5 ta (1,2 %), Qo'shtepa tumani 8 ta (1,9 %), Bog'dod tumani 9 ta (2,1 %), Buvayda tumani 9 ta (2,1 %) va Yozyovon tumani 5 ta (1,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida o'sish sur'ati, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 284 tasi qo'shma, 138 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Farg'ona viloyati	422	100,0

Farg'ona shahar 143 33,9

Qo'qon shahar 57 13,5

Quvasoy shahar 23 5,5

Marg'ilon shahar 21 5,0

Tumanlar:

Oltiariq tumani 19 4,5

Qo'shtepa tumani 8 1,9

Bog'dod tumani 9 2,1

Buvayda tumani 9 2,1

Beshariq tumani 6 1,4

Quva tumani 16 3,8

Uchko'prik tumani 12 2,8

Rishton tumani 10 2,4

So'x tumani 4 0,9

Toshloq tumani 14 3,3

O'zbekiston tumani 20 4,7


Farg'ona tumani 23 5,5

Dang'ara tumani 18 4,3

Furqat tumani 5 1,2

Yozyovon tumani 5 1,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 10 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga kamaygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 3 ta (30,0 %), Qo'qon 2 ta (20,0 %), Quvasoy 1 ta (10,0 %) shaharlarida, Dang'ara tumanida 1 ta (10,0 %), Toshloq tumani 1 ta (10,0 %), Uchko'prik tumani 1 ta (10,0 %), Bog'dod tumani 1 ta (10,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2020-yilning yanvar-fevral oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta, Rossiya Federatsiyasi – 3 ta, Fransiya Respublikasi - 1 ta, Saudiya Arabistoni Qirolligi - 1 tadan va yana bir qator boshqa davlatlar bilan hamkorlikda yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, bir nechta davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyat yuritishga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 5 ta, savdoda 1 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligidagi 1 ta, qurilishda 1 ta va boshqa korxonalarda 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-mart holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 30,6 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-mart holatiga qaraganda 19,1 % ga oshgan.

Ro'yxatdan o'tgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya`ni 5 534 tasi (18,1 %) Farg'ona, 4 305 tasi (14,1 %) Qo'qon, 3 338 tasi (10,9 %) Marg'ilon shaharlariga, 1 661 tasi (5,4 %) Uchko'prik va 1 488 tasi (4,9 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiga nisbatan ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Farg'ona shahar
18,2 %



Beshariq tumani
2,7 %



Qo'qon shahar
14,2 %



Rishton tumani
2,8 %



Marg'ilon shahar
11,0 %



Furqat tumani
2,2 %



Uchko'prik tumani
5,3 %



So'x tumani
2,2 %




Dang'ara tumani
4,9 %



Yozyovon tumani
1,9 %


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 30 574 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 9 664 tasi (31,6 %) - savdoda, 7 878 tasi (25,8 %) - sanoatda, 2 967 tasi (9,7 %) - qurilishda, 1 731 tasi (5,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1 785 tasi (5,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1 435 tasi (4,7 %) - tashish va saqlashda, 1 053 tasi (3,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 644 tasi (2,1 %) - sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3 419 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yilning yanvar-fervral oylarida 1002 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2019-yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1185 taga kamaygan. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni Farg'ona (169 ta), Qo'qon (143 ta), Marg'ilon (100 ta) shaharlari, Oltiariq (46 ta) va Buvayda (38 ta), So'x (16 ta), Furqat (24 ta) hamda Yozyovon (19 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, savdoda (439 ta), sanoatda (223 ta), boshqa turdag'i xizmatlar (77 ta), qurilishda (94 ta), tashish va saqlashda (37 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (42 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (38 ta), axborot va aloqada (27 ta) hamda sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (25 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar


2020-yil 1-mart holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 3 846 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga qaraganda 732 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkun.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-mart holatiga 3 846 tani tashkil etib, ulardan 3 752 tasi yoki 97,6 % faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, oilaviy korxonalarning 45,5 % yoki 1 708 tasi sanoat, 14,0 % yoki 524 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,7 % yoki 739 tasi savdo, 7,3 % yoki 275 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,0 % yoki 74 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 34 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 43 tasi qurilish, 1,0 % yoki 38 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,5 % yoki 317 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida asosiy qismi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, savdo hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

Farg'ona viloyati	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Farg'ona viloyati	141	100,0
Farg'ona shahar	8	5,7
Qo'qon shahar	5	3,5
Quvasoy shahar	9	6,4
Marg'ilon shahar	9	6,4
Oltiariq tumani	7	5,0
Qo'shtepa tumani	5	3,5
Bog'dod tumani	14	9,9
Buvayda tumani	11	7,8
Beshariq tumani	7	5,0
Quva tumani	7	5,0
Uchko'prik tumani	6	4,3
Rishton tumani	15	10,6
So'x tumani	4	2,8
Toshloq tumani	9	6,4
O'zbekiston tumani	8	5,7
Farg'ona tumani	8	5,7
Dang'ara tumani	4	2,8
Furqat tumani	4	2,8
Yozyovon tumani	1	0,7

2020-yilning yanvar-fevral oylarida 141 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 221 taga kamaygan. Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Farg'ona shahar (8 ta), Marg'ilon shahar (9 ta) va Rishton (15 ta), Farg'ona (8 ta), Oltiariq (7 ta), Buvayda (11 ta) hamda Beshariq (7 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, ularning 46,1 % yoki 65 tasi sanoat, 29,1 % yoki 41 tasi savdo, 7,8 % yoki 11 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 4,3 % yoki 6 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,8 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 8,5 % yoki 12 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Viloyat statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71-230-87-37

